

INTELLEKTUAL KAPITALNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI

Abduvaliyev Doniyorbek Baxromjon o‘g‘li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. Suv xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish yo‘nalishi talabasi. Qarshi shahri. O‘zbekiston Respublikasi.

abduvaliyevdoniyorbek0@gmail.com

Sayfullayev Siroj Ikrom o‘g‘li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. Suv xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish yo‘nalishi talabasi. Qarshi shahri. O‘zbekiston Respublikasi. ssayfullayev679@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotda intellektual kapital o‘ziga xos xususiyatlari uning mohiyati va iqtisodiy ishlab chiqarishdagi o‘rni va tarkibiy tuzilishi haqida umumiy ma’lumotlar berib o‘tiladi.

Kishilik jamiyati faoliyatining eng muhim jihatasi—bu ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslar ishlataladi va uning natijasi sifatida mahsulotlar va xizmatlardan iborat hayotiy ne’matlar yaratiladi. Mamlakatimiz olimlari tomonidan chop etilgan iqtisodiy adabiyotlarning aksariyatida, iqtisodiy resurslar—ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlaridan iborat ekanligi qayd etiladi. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qat’iy nazar ishlab chiqarish sodir bo‘lishi uchun uchta omil: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlari bo‘lishi shart. Iqtisodiy resursning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan pul resurslari iste’mol mollari zaxiralari ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo‘llanilmaganligi sababli, ishlab chiqarish omili bo‘la olmaydi.”, deyiladi.

Hozirgi G‘arb mamlakatlarida iqtisodiyot sohasining yirik olimlari iqtisodiy resurslar tarkibiga tadbirkorlik qobiliyatini ham kiritishadi. Bizning nazаримизда, iqtisodiy resurslar tarkibiga “tadbirkorlik qobiliyatining” kiritilishi asosli, chunki, ishlab chiqarishning taqdiri, rivojlanishi tadbirkorlarning tug‘ma-aqliy qobiliyati, uddaburonligi, ishbilarmonligi kabi omillarga ham bog‘liqdir. Tadbirkorlarda bunday sifatlarning bo‘lishligi, ayniqsa iqtisodiy tanglik, resurslar taqchilligi sharoitida yanada sezilarli bo‘ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, ishlab chiqarish natijasi – uning omillarining birikishi bilan chegaralanib qolmaydi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar

hajmi hamda iste'molchilar talabini qondira olish darajasi ishlab chiqarish omillari: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlarining sifatiga ham bog'liq. Bu – ishlovchilarning malaka-mahorati, bilimi va tajribasi, ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi demakdir. Buning zamirida esa intellektual kapital yotadi. Intellektual kapital –bu mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning bilimi, mahorati va ishlab chiqarish tajribasi hamda nomoddiy aktivlar (patent, litsenziya, nou-xau). Innovatsion iqtisodiyotda intellektual kapital o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, ishlovchilarning malaka-mahorati, bilimi va tajribasi ko'rinishidagi intellektual kapital yig'ilib (to'planib) boradi. Ikkinchidan, intellektual kapitalni uning sohiblaridan ajratib bo'lmaydi. Intellektual kapital – shaxsga tegishli oliy darajadagi xususiyat: yaratuvchanlikka yo'g'rilgan bilim, g'oya, ixtiro va yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish. Uchinchidan, intellektual kapitalni shakllantirishda shaxsning tug'ma-aqliy yoki tarbiyalanishi va o'qishi davomida shakllangan qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. To'rtinchidan, intellektual kapitalga sarflangan mablag' – qilingan sarfdan birnecha marotaba katta hajmda va uzoq vaqt mobaynida iqtisodiy va sotsial samara beradi. Shuningdek, intellektual kapitalga kiritilgan investitsiyalar davri, boshqa ob'ektlarga kirilgan investitsiyalarga nisbatan uzunroq bo'ladi. Beshinchidan, intellektual kapital –inson kapitalining ajralmas qismidir. Intellektual kapital –mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida ishlatilganidagina qiymatga ega bo'ladi, aks holda, u iqtisodiyot va jamiyat uchun ahamiyatli emas, ya'ni hech qanday qiymatga ega bo'lmaydi. Intellektual kapital – ishlab chiqarish jarayonida ishtiropi davomida qiymat yaratadi va intellektual resurs sifatida transformatsiya bo'ladi. Va bunday ishlab chiqarish – intellektual ishlab chiqarish deb ataladi. Intellektual mahsulot bitmas-tuganmasdir. U jamiyatning innovatsion texnik-texnologik, sotsial-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini aks ettiradi. U ijodiy faoliyat natijasi hisoblanadi. Bu ko'p hollarda aqliy mehnat kishilari – yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar, injener texnik xodim va boshqalar faoliyatining maxsulidir. Intellektual mahsulot yangilik xususiyatiga yoki o'ziga xos takrorlanmas belgilariga ega bo'ladi. Bunday mahsulotlarning ko'pchiligi g'oyaviy – nomoddiy ko'rinishda bo'ladi. Shu sababli ham ularga nisbatan odatdagi ashyo, ya'ni moddiy obektga nisbatan qo'llaniladigan huquq me'yorlarini qo'llab bo'lmaydi. Innovatsion faoliyat natijalarini sifatida ilmiy-texnik mahsulotning har xil turlari bo'lishi mumkin: ixtiolar, loyiha konstruktorlik yechimlari, tajriba namunalari, yangi reglament va retseptlar, ishlab chiqarish usullari va ko'pgina boshqalar. Ular nafaqat mazmuni, tarkibi va maqsadiga ko'ra turlanadi, balki iste'molga (foydanishga) tayyorgarlik darajasi bo'yicha ham farqlanadi. Innovatsion faoliyat natijalarining ko'pginasi ko'p pog'onali huquqiy va tashkiliy tadbirdardan so'ng intellektual mulk shakliga kiradi, ma'lum qismi esa tijorat siri bo'lib

qoladi. Jahon va ichki bozorda intellektual multk ob'ektlari – o'ziga xos tovar bilan bo'lgan tijorat operatsiyalari muhim ahamiyat kasb etib qolmoqda.

Xulosa o'mida shuni aytishimiz mumkinki, intellektual ishlab chiqarish insonning ijodiy fikrlash va ma'naviy jihatdan yaratuvchilik qobiliyatiga ega ekanligini tavsiflaydi. Insonning intelektual ijodkorligining mahsuli – intellektual mahsulot deyiladi. U foydali yaratuvchilik xususiyatiga ega. Bunday mahsulotdan foydalanuvchilarning barchasi maksimal darajada naf ko'radi. Ishlab chiqarishda intellektual fikrlashning o'rni juda baland turadi. Chunki biron bir mahsulotni yaratishdan oldin uni iste'molchilarga ham yoqish yoqmasligini ham inobatga olish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Bakiev M.R, Kaveshnikov N, Tursunov T. Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish.- Toshkent, TIMI 2011. 412bet.
2. <https://review.uz>
3. <https://yuz.uz>
4. <https://cyberleninka.ru>